

TIRNOQ GULI- FLORES CALENDULAE

*Olimov Sardor Mustafoevich**Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti**Xolliyev To'lqin.T.T, Xolliyeva N.T, Sattorov Sh.R**Samarqand davlat tibbiyot universiteti 411- guruh talabasi*

Anotatsiya: Tirnoq gul – flores calendula asosan bu dorivor preparat turli yara lar, kuyganni davolashda, stomatit, angina va boshqa tomoq og'rig'i kasalliklarid a hamda tomoqni chayqash uchun foydali mahsulot xisoblanadi. Bu mahsulot ba'zi bi r rak kasalliklarida ishlatiladigan preparatlar tarkibiga kiradi.

Kalit so'zlar: Damlama, stomatit, rak kasalligi, oshqozon ichak, karotin, flavonoid, kumarinlar.

Dorivor tirnoqgul – *Calendula officinalis*. Bir yillik, bo'yi 30-50 sm ga yetadigan o't o'simlikl. Ildiz shoxlangan o'q ildiz. Poyasi qattiq, tik o'suvchi, asos qismidan boshlab shoxlangan, qirrali bo'lib, yuqori qismi bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, bandli, cho'ziq-teskari tuxumsimon, sertuk, poyada ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsi, tuxumsimon yoki lansetsimon, gullari savatchaga to'plangan.

Yana bu o'simlik **kalendula** nomi bilan ham ko'pchiligimizga ma'lum. Bu o'simlik qadim zamonlardan beri xalq tabobatida ham keng miqyosda foydalanilib kelinmoqda. Hozirda rasmiy tibbiyotda ham keng qo'lla-nilmoqda.

Bu mahsulot tarkibida 7,6 – 7,8 mg foiz karotin (karotinoidlarning umumiy miqdori savatchaning tilsimon chetki gullari tarkibida 3 foizga yetadi), 0,62 – 0,4 foir efir moyi, 0,33 – 3,44 foiz smolalar, 4 foizgacha shilliq 10,4 – 11,2 foiz oshlovchi moddalar, 19 foizgacha achchiq modda kalenden, 6,84 foiz olma, pentadesid va oz miqdorda salisilat kislotalar, triterpene diollar (arnidiol va faradiol), triterpene saponin – kalendulozid hamda alkaloidlar bo'ladi.

Tirnoqgul o'simligining bargi va ildizi glikozidlar bo'ladi. Glikozidlar yig'indisidan kalendulozid C va kalundulozid D glikozidlari ajratib olingan. Kalendulozid C gidrolizlanganda 2 molekula glukoza, bir molekula galaktoza va oleanol kislotaga parchalanadi.

Mahsulot tayyorlash: Tirnoqgulning gullari qiyg'os ochilgan vaqtda (savatchaga to'plangan tilsimon gullari gorizontal turgan davrda) savatchalar bandsiz qirib olinadi. Gullarni yoz bo'yi, 10 – 20 martagacha yig'ish mumkin. Yig'ilgan mahsulot soya yerda quritiladi.

Tirnoqguldan tabiblar siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan, terlatadigan dori sifatida foydalanishgan. Badanning dog' tushgan joylari, gush kasalligi, mastitni

davolashda shu o'simlikdan foydalanishgan. Bundan tashqari tirnoqgulni gepatit, xoletsistit, me'da yara kasalligi, gipertoniya, siydik-tosh kasalliklarini davolashda ham ishlatishgan. Ibn Sino ham tirnoqgulni kal kasalligi, belangini davolashda ishlatgan, ilon, chayon chaqqanda buyurgan. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara jarohatlarni bitiradigan, terlatadigan vosita sifatida keng qo'llanilgan. Hind tabobatida uni quvvatga kirgizadigan, tetiklashtiradiga dori sifatida buyirilgan.

Foydali jihatlari:

- Dezinfeksiyalash va antiseptic
- Yallig'lanishni yengillashtiradi
- Antispazmodik
- Diuretik va xoleretik ta'sirga ega
- Og'riq qoldiruvchi
- Qon va terini tozalash

Dori tayyorlash va ishlatilish:

1. 2 choy qoshiq miqdoridagi tirnoqgul gullari ustiga 2 stakan qaynoq suv quyib, 15 daqiqa damlab qo'yiladi, keyin suzib olinib, yarim stakandan kuniga 3-4 maxal ichiladi.

2. O'simlikning 1 osh qoshiq mayda yanchilgan gullari ustiga 1 stakan aroq quyib 7 kun saqlanadi. Keyin suzib olinadi va 25-30 tomchi kuniga 3 maxal ichiladi. Bu tinkturaning 1 choy qoshig'ini 1 stakan qaynagan suvga aralstirib yara jaroxatlarni yuvish, chayish uchun ishlatish ham mumkin.

3. Mayda kukun qilib yanchilgan o'simlik gullaridan 1 choy qoshiq miqdorida olib 15 gr miqdordagi vazelinga obdan qorishtiriladigan va badanning kasal joylariga surtish uchun ishlatiladi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan hollar:

- Qon bosimi pasayganda
- Yurak-qon tomir kasalliklarining yetishmovchiligida
- Oshqozon-ichak kasalliklari kuchayganda
- Bronxial astmada
- Safro tosh kasalligida
- Homiladorlik davrida

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bizning asosiy maqsadimiz tirnoqgul dorivor o'simligini shifobaxsh xususiyatlari va farmaseftika sanoatiga tadbiq qilish mobaynida undan plantatsiyalar yaratish va qo'llash doirasini kengaytirish demakdir. Chunki hozirgi kunda tabiiy dori vositalariga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu o'simlik

xom ashyosidan damlamalar, tinktura, nastoyka, “kalendula” surma dorilari, klafelon tabletka ko’rinishida farmaseftika sanoatida chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meliqulov O.J, Ernazarova M.S, Dori vositalarining barqarorligini oshirish yo’llari **Oriental renaissance:** 978-982s.
2. Meliqulov O.J, Kodirov N.D 1,4-benzodiazepinning tibbiyotda qo’llaniladigan vositalari. **Oriental renaissance:** 313-317s.
3. Meliqulov O.J Baymuradov E.S vitamin B12 ning olinishi va uning ahamiyati **Oriental renaissance:** 324-327s.
4. Xolmatov H.X Farmakognoziya 1-kitob
5. 16. [Ordinary mountain Basil-organum vulgare](#)
GR Khasanova, SM Olimov
Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (5), 471-474
6. Баймурадов, Э. С., & Олимов, С. М. (2022). Таркибида эфир мойлари булган доривор усимликлар ва махсулотлар. *Science and Education*, 3(11), 96-105.
7. Нажмитдинов, Х. Б., Олимов, С. М., & Бахромова, Б. З. (2022). ПОЛЕЗНЫЕ СВОЙСТВА ФРУКТА–ПЕРСИК. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 327-332.
8. Olimov, S. M., & Вахромова, В. Z. (2022). ZANJABIL HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. TIBBIYOTDA QO’LLANILISHI. *Journal of new century innovations*, 14(1), 156-160.
9. O.J.Meliqulov, N.D.Kodirov, & E.S.Baymuradov (2022). 4–XLOR-5,6-DIMETILTIENO[2,3-D]PIRIMIDINNING TO’YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. Ta’lim fidoyilari, 18 (5), 285-288.
10. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., Баймурадов, Э. С., & ИСПОЛЬЗОВАНИЕ, Б. В. Ф. ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-barbarisa-v-farmakoterapii>.
11. Mirzoyeva, F. A., Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Medicinal plants and their properties. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1140-1144.
12. Meliqulov, O. J., & Kodirov, N. D. (2022). 1.4-benzodiazepinning tibbiyotda qo’llanadigan vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 313-317.
13. Захидов, К. А., Меликулов, О. Ж., Гайбуллаев, Ш. Ш., & Орипов, Э. О. (2018). ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ ФАКТОРОВ НА НАПРАВЛЕНИЕ РЕАКЦИИ АЛКИЛИРОВАНИЯ 2-АЦЕТИЛАМИНО-6-МЕТИЛ (ФЕНИЛ) ПИРИМИДИН-4-ОНОВ. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 54.

14. Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Dori vositasiga shakl berish va dori vositadagi ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi haqida tushuncha. *Science and Education*, 3(11), 126-134.
15. Meliqulov O. J., Kodirov N. D. Furan va uning tibbiyotda ishlatiladigan hosilalari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 178-185.
16. Meliqulov, O. J., Kodirov, N. D., & Baymuradov, E. S. (2022). 4-XLOR-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. *Ta'lim fidoyilari*, 18(5), 285-288.
17. Meliqulov, O. (2021). 2H-4-GIDRAZINIL-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-d] PIRIMIDINNING SİNTEZI VA UNING ALDEGIDLAR BILAN KONDENSATSIYA REAKSIYALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Meliqulov, O. J., & Baymuradov, E. S. (2022). 2H-4-GIDRAZINIL5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING AROMATIK ALDEGIDLAR BILAN REAKSIYASI. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Imamova, Y. A., & Meliqulov, O. J. (2022). Dori vositasiga shakl berish va dori vositadagi ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi haqida tushuncha. *Science and Education*, 3(11), 126-134.
20. Meliqulov, O. J., & Kodirov, N. D. (2022). 1.4-benzodiazepinning tibbiyotda qo'llanadigan vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 313-317.